**O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar**
**bo‘yicha prorektor**
**_________I.Bekpulatov**
**__________ 2026 y**

# 08.00.12 – “MINTAQAVIY IQTISODIYOT” IXTISOSLIGI BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI DASTURI


**Tuzuvchilar:** i.f.d., professor A.O. Ochilov
i.f.n, prof. G.P. Erkayeva
i.f.d, prof. G’.A. Nabiyev


**Dastur universitet Kengashining 2026 yil 27 avgust dagi majlisida tasdiqlangan (bayonnoma № 1 )**

**QARSHI – 2026**

mintaqaviy tadqiqotlar maktabi va fanning bugungi kundagi rivojlanish yo‘nalishlari. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasi va uning maqsadi. Mintaqa iqtisodiyotini shakllantirish qonuniyatlari hamda uning asosiy jihatlari. “Mintaqa”, “Rayon”, “Hududiy sistema” va “Mintaqaviy xo‘jalik” tushunchalari. Mintaqada iqtisodiy faoliyat. Mintaqaviy siyosat asoslari. Davlat mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va uni amalga oshirish metodlari.

**2-mavzu. Mintaqalarda ishlab chiqarishni joylashtirish va uni hududiy tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asoslari.**

Ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari. Ishlab chiqarishni joylashtirishning klassik g‘oyalari. Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari. Mintaqalarda innovatsion ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasi va innovatsiyaning diffuziyasi. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning mohiyati va asosiy shakllari. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining mohiyati va turlari. Hududiy klasterlar tushunchasi.

**3-mavzu. O‘zbekiston iqtisodiyotning hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlashtirish asoslari.**

Iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasi, uni tashkil etishning asosiy tamoyillari va vazifalari. Hududiy mehnat taqsimoti, uning bosqichlari. Mintaqaviy ixtisoslashuv va uning samaradorligi, mintaqaning tarmoqning ixtisoslashuvini aniqlash metodlari. Iqtisodiy rayonlar tushunchasi. O‘zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish. Mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilishi va iqtisodiy rayonlari o‘rtasidagi aloqadorlik. Milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlar.

**4-mavzu. Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va uni baholashning uslubiy asoslari.**

Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati va uning tasnifi. Mintaqa salohiyatidan foydalanish samaradorligi va uning tarkibiy elementlari. Mintaqada iqtisodiy o‘sish omillari. Iqtisodiy salohiyat va uning tarkibi. Respublika hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash metodlari. O‘zbekiston hududlarining tabiiy sharoiti va qazilma boyliklariga baho berish. Mintaqa rivojlanishining resurs bazasi va uni shakllantirish masalalari.

**5-mavzu. Mintaqalar aholisi va mehnat resurslari.**

Demografik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari va demografik siyosat. Aholining jinsiy va irqiy tarkibi, ularning mehnat resurslariga ta’siri. Iqtisodiy faol aholi. Savodxonlik darajasi. Aholining «sifati». Eski va yangi sug‘oriladigan

**9-mavzu. O‘zbekiston transporti, infratuzilmasi rivojlanishining mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari.**

Transport tarmoqlarining shakllanishi, rivojlanishi va joylashishidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlar. Temir yo‘llarning umumiy uzunligi. Avtomobil transporti. Avtomobil yo‘llarining uzunligi. Avtomobil yo‘llari tarmoqlari konfiguratsiyasi. Quvur transporti va uning ahamiyati. Havo transporti. Infrastruktura. Radio, tele, sputnik aloqalarning rivojlanishi. Suv va gaz ta’minotining mintaqaviy tizimi.

**10-mavzu. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish va uni boshqaruvdagi roli.**

Mintaqalar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning metodlari va asosiy vositalari. Mintaqada iqtisodiy islohotlarni olib borishni monitoring qilish. Mintaqaviy boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarni hal etish metodlari. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini boshqarish instrumentlari. Mintaqaviy marketing. Mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirish nazariyasi, uning mohiyati va bosqichlari. Strategik rejalashtirishning xususiyatlari, obe’kti va tamoyillari. Hududiy dasturlar, ularning tasniflanishi va tarkibiy tuzilishi. O‘zbekistonda hududiy dasturlarni ishlab chiqish amaliyoti.

**11-mavzu. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni imkoniyatlari.**

O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Hududiy o‘sish nazariyalari tahlilini boshlashdan oldin, u bilan bog‘liq ikkita masalani ko‘rib chiqish zarur. Birinchisi – «o‘sish» va «rivojlanish» kategoriyalarining nisbatlari, ikkinchisi – o‘sish muammolari ko‘rib chiqiladigan mintaqalar chegaralarini aniqlash. Hududlarning iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari. Mintaqalarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni kengaytirish yo‘llari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo‘llari, mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati.

**12-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat, ahamiyati va uni amalga oshirish yo‘llari.**

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo‘yicha xorijiy tajribalar. Ko‘plab mamlakatlarda mintaqaviy siyosat o‘zining ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, turli hududlar uchun turlicha qo‘llanilishi. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usullaridan biri hududiy rivojlantirish jamg‘armalarini tashkil etishi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston mintaqaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

## Baholash mezonlari

Kirish sinovi yozma ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi. Talabalar javob yozishi lozim bo‘lgan variantlarda 4 tadan savol bo‘lib, har bir savolning javobiga maksimal 25 balldan ajratiladi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

| **Har bir savol uchun ball** | **Yozgan javobiga qo‘yiladigan talablar** |
|---|---|
| 21,0-25,0 | Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan.<br>Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan.<br>Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan.<br>Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan.<br>Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan.<br>Fikrlar erkin bayon etilgan. |
| 16,0-20,0 | Savolning mohiyatini tushungan.<br>Javobni yoritib bera olgan.<br>Amaliy misollar keltirilgan.<br>Tasavvurga ega.<br>Qisqacha xulosa bergan.<br>Fikrlarni sodda bayon etgan. |
| 11,0-15,0 | Savol mohiyatini tushungan.<br>Javob yoritilgan, qisqa shaklda.<br>Misollar bilan asoslanmagan.<br>Xulosa qilingan. |
| 1,0-10,0 | Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan.<br>Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas. |

развития регионов на долгосрочную перспективу. Коллективная монография / Под ред.Садыков А.М. – Т., 2012. – 213 с.

17. Назаров Ш.Х. и др. Стратегия социально-экономического развития Андижанской области на долгосрочную перспективу. Коллективная монография // Под ред. Садыков А.М. – Т., 2012. – 199 с.

18. Региональная экономика: учебник для студентов вузов. – 4-е изд., перераб. и доп. / Под редакцией профессора Т.Г. Морозовой. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 527 с.
19. Садыков А. М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Монография. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2005. – 280 с.
20. Современные подходы и практика разработки, реализации и стратегических планов/ Материалы семинара-тренинга. – Т., ИПМИ, 2011.34 с.
21. Территориальное планирование: новые функции, опыт, проблемы, решения: Сб.ст./ Под ред. А.И.Чистобаева. – СПб.: Изд-во “С. – Петерб.ун-та”, 2009. – 189 с.
22. Белокрылова О.С., Киселева Н.Н., Хубулова В.В. Региональная экономика и управление. Учебное пособие. – М.: Альфа-М, ИНФРА-М, 2009. – 240 с.
23. Вавилова Е.В. Экономическая география и регионалистика. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2011. – 224 с.
24. Видяпина В.И., Степанова М.В. Региональная экономика. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 666 с.
25. Андреев А.В. и др. Региональная экономика. Учебник. – СПб.: ПИТЕР, 2012. – 464 с.
26. Nabiyev D., Erkayeva G., Nabiyev G’. “Mintaqaviy iqtisodiyot”. O’quv qo’llanma. Qarshi 2022.

27. www.lex.uz
28. www.tfi.uz
29. www.ifmr.uz
30. www.gov.uz